

“O‘ZBEKISTON-YAPONIYA HAMKORLIGINING TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI”**Azizova Feruza Vasikovna***O‘qituvchi**“Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrası**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

Annotatsiya. *So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining Yaponiya bilan munosabatlari sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarildi. Binobarin, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida Yaponiya bilan bo‘lgan munosabatlar dolzarbligicha qolmoqda.*

Shunday qilib, O‘zbekiston-Yaponiya aloqalarining hozirgi holati davlatlarimizning bir-birlari bilan uzoq muddatli strategik hamkor ekanliklaridan dalolat beradi. Bu esa, ikki mamlakat xalqlarining milliy manfaatlariga va hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir. Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba‘zi bir jihatlarini O‘zbekistonda ham qo‘llash manfaatli bo‘ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *diplomatik munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, shartnoma, normativ-huquqiy hujjat, JICA, modernizatsiya, Yaponiya tajribasi*

"HISTORY, PRESENT AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN-JAPANESE COOPERATION"**Feruza V. Azizova***Teacher**Tashkent State University of Oriental Studies*

Annotation. *In recent years, relations between the Republic of Uzbekistan and Japan have risen to a new level in terms of quality. Consequently, relations with Japan remain relevant in the foreign political activities of Uzbekistan.*

Thus, the current state of Uzbek-Japanese relations indicates that our countries are long-term strategic partners with each other. This fully corresponds to the national interests of the peoples of the two countries and the requirements of the present time.

In conclusion, Japan is our strategic partner. Analyzing the Japanese economy and development model, it will be interesting to apply some of its aspects in Uzbekistan. Because of this, it is very important to establish mutually beneficial relations between the two countries.

Keywords: *diplomatic relations, economic cooperation, investment, contract, legal document, JICA, modernization, Japanese experience*

«ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЗБЕКИСТАНО-ЯПОНСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА»

Азизова Феруза Васиковна

Преподаватель

Кафедра «Экономика стран Востока».

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. За последние годы отношения между Республикой Узбекистан и Японией поднялись на качественно новый уровень. Следовательно, отношения с Японией сохраняют актуальность во внешнеполитической деятельности Узбекистана.

Таким образом, нынешнее состояние узбекско-японских отношений свидетельствует о том, что наши страны являются долгосрочными стратегическими партнерами друг для друга. Это полностью отвечает национальным интересам народов двух стран и требованиям современности.

В заключение хочу сказать, что Япония является нашим стратегическим партнером. Анализируя японскую экономику и модель развития, будет интересно применить некоторые ее аспекты в Узбекистане. В связи с этим очень важно установить взаимовыгодные отношения между двумя странами.

Ключевые слова: дипломатические отношения, экономическое сотрудничество, инвестиции, контракт, юридический документ, JICA, модернизация, опыт Японии.

Ikki davlatning o'zaro munosabatlari tarixi qadimiy asrlarga borib taqaladi. Buyuk ipak yo'li orqali o'zbek va yapon xalqlari o'rtasida savdo -iqtisodiy va madaniy aloqalar bo'lganligi ilmiy tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Olimlarning tadqiqoti va o'zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyalari natijasiga ko'ra, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan Kushon podsholigining asosiy dinlaridan biri bo'lgan buddizm O'rta Osiyo xalqlari milliy qadriyatlari va an'analari bilan boyigan holda VI asrda Xitoy va Koreya orqali Yaponiya orollarida tarqalgan. O'zbekistonda topilgan qadimiy budda ibodatxonalarining hozirgi Yaponiyadagi ibodatxonalar bilan mushtarakligi namoyon bo'lmoqda.

Yaponiyaning birinchi poytaxti Nara shahridagi Xoruji ibodatxonasi xazinaxonasida VIII asrda Samarqand va Toshkentda tayyorlangan osori-atiqalar, IX-X asrlarga oid ud musiqa asbobi saqlanmoqda. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan va XII asrga mansub nafis yapon chinni idishi ham o'zbek va yapon xalqlari o'rtasida aloqalar bo'lganini ko'rsatadi. Yaponiya XIX-asrning 2-yarmidan O'rta Osiyo regionini bilan jiddiy qiziqqa boshlagan. 1880-yilning yozida yapon diplomati Nishi Tokujiro (keyinchalik u Yaponiya tashqi ishlar vaziri bo'lgan) o'lkamiz bo'ylab sayohat qilgan. U Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari va Farg'ona vodiysida bo'lgan. Buxoro amiri Muzaffarxon bilan uchrashgan. Bu hodisa yaponlarning musulmon o'lkalari bilan dastlabki rasmiy aloqalaridan biri edi. 1886-yilda Nisi Tokudzironing "Turkiston sayohatnomasi" kitobi yapon tilida bosilib chiqqan. XIX

asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoga Yasumashi Fukushima, Kazuo Otani, Masaji Inoue, Zuicho Toshihana kabi yapon tadqiqotchilari sayohat qilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1920-yillarda Yaponiyaga borib qolgan Volgabo‘yi tatarlari orasida o‘zbeklar ham bo‘lgan. Ular Tokio shahrida masjid qurilishi va islom dinini yoyilishida o‘z hissalarini qo‘shishgan. 1945-yildagi sovet-yapon urushi natijasida asir olingan 24 mingga yaqin yapon 1945–50-yillarda O‘zbekistonning Andijon, Buxoro, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida ushlab turildi. Ular ko‘plab sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqalar sohalarda mehnat qildilar. Jumladan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatr binosi qurilishida 600 ga yaqin yapon asirlari ishtirok etgan. O‘zbekistonda vafot etgan 812 yapon fuqarosi respublikamiz hududidagi 13 qabristonda dafn etilgan. 1990-yil may oyida Toshkentning Yakkasaroy qabristonida Ikkinchi jahon urushi (1939–45yy.)dan keyin Toshkentda vafot etgan 79 ta yapon harbiy asiri xotirasiga memorial o‘rnatildi.

1960–80-yillarda Yaponiya O‘zbekistondan paxta tolasi, chigit, shirinmiya ildizi, asal, ipak va boshqalar mahsulotlar xarid qilgan. 1970-yillar boshidan Yaponiya yiliga 190 mln. AQSH dollari hajmida paxta tolasi sotib olgan. Xususan, Sumitomo kompaniyasi 1971–93-yillar 547,3 mln. AQSH dollariga paxta tolasi xarid qilgan. Shu yillar Yaponiyaning qator kompaniyalari O‘zbekistonning yengil, kimyo va neft sanoatini modernizatsiya qilishga jalb etildi. Farg‘ona va Chirchiq shahrilarida ammiak ishlab chiqarish uchun yapon texnologiyalari o‘rnatildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Namangan, Shahrisabz va Urganchdagi ipakchilik fabrikalarida Yamato firmasining pilla quritish mashinalari qo‘llandi. 1989-yil O‘zbekistonda xorijiy firmalar orasida birinchi bo‘lib Yaponiyaning "Chori" kompaniyasi o‘z vakolatxonasini ochdi.

Ilmiy va madaniy sohalarda ham o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Yapon va o‘zbek olimlari tomonidan zilzilani oldindan aniqlash, sanoat mahsulotlarini statistik qabul qilish nazorati usullari atroflicha o‘rganildi va amaliyotga tatbiq etildi. Ayniqsa, tarix, tilshunoslik va arxeologiya fanlari bo‘yicha samarali hamkorlik amalga oshirildi. Itaro Kumatsuning yaponlar uchun “O‘zbek tili” qo‘llanmasi (1978), “O‘zbekcha so‘zlashuv” (1983), “O‘zbekcha-yaponcha lug‘at” (1980, 1985) kitoblari ko‘p ming nusxada nashr etildi. 1950–80-yillarda adabiyot sohasida ham salmoqli aloqalar bo‘ldi. Xususan, 1956-yil O‘zbekistonga kelgan taniqli yapon yozuvchisi va tarjimoni Man Inoue atoqli o‘zbek shoiri G‘afur G‘ulom bilan uchrashgan hamda Yaponiyada chop etilgan “Toshkentda bir oqshom” asarida o‘zbek va yapon xalqlari madaniyati, an‘ana va turmush tarzidagi mushtaraklik haqida hikoya qilgan. Shu davrda Yoshie Hotta, Kobo Abe, Yasunari Kavabata, Ryunoske Akutagava, Takeo Arishima, Masuji Ibuse va boshqalar mashhur yapon ijodkorlarining 30 ga yaqin roman, qissa, she‘r va hikoyalari o‘zbek tilida chop etilgan. O‘z navbatida, Yaponiyada Alisher Navoiy, Sh. Rashidov, Zulfiya, Ramz Bobojon ijodi namunalari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari yapon tiliga tarjima qilinib, bir necha marta nashr qilgan.

1991-yil Yaponiya O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olib, 1992-yil diplomatik munosabatlari o‘rnatgach, 1992-yilda Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1996-yilda esa O‘zbekiston Respublikasining elchixonasi Tokio shahrida o‘z faoliyatini boshladi. Ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatildi. O‘tgan 14 yil mobaynida ikki davlat

o‘rtasida ko‘plab rasmiy hujjatlar imzolandi. Shu davr davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2-marta (1994, 2002) rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo‘ldi. Bundan tashqari, ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, hukumatning rahbar va mas‘ul xodimlari, Parlament delegatsiyasi va boshqalarning o‘zaro tashriflari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yilning mayida Yaponiyaga qilgan birinchi tashrifi o‘zaro siyosiy muloqotni faollashtirdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yil 28–31-mayida Yaponiyaga qilgan ikkinchi rasmiy tashrifi muhim rol o‘ynadi. Tashrif chog‘ida 14 ta hujjat imzolandi. Bular qatoriga O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasida do‘stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida deklaratsiya, Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ko‘maklashish haqida qo‘shma bayonot va boshqalar hujjatlar kiradi. Tashrif chog‘ida Islom Karimov O‘zbekistonning Yaponiya bilan hamkorlik qo‘mitasi va Yaponiyaning O‘zbekiston bilan hamkorlik qo‘mitasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqsi. Qo‘mitalar tashkil etilib, uning birinchi qo‘shma majlisi 2004-yil iyulda Tokio shahrida o‘tkazildi.

Bugungi kunda Yaponiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan moliyaviy resurslarining umumiy qiymati 1,9 mlrd. AQSH dollariga yaqinlashdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonga 160 mln. AQSH dollari miqdorida beg‘araz va insonparvarlik yordami ko‘rsatilib, u, asosan, maorif va sog‘liqni saqlash sohasiga sarflandi. Yapon sarmoyasi mamlakat iqtisodiyotining yoqilg‘i-energetika, transport va kommunikatsiya, yengil sanoat tarmoqlarini, kadrlar tayyorlash va boshqa sohalarni yuksaltirish, xususan, respublikaning telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish, Toshkentdagi temir yo‘l vagonlarini ta‘mirlash zavodi, Samarqand, Buxoro, Urganch shahrlari aeroportlarini modernizatsiya qilishga sarflandi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik bankining imtiyozli qarzlari tufayli Ko‘kdumaloq neftgaz konini jihozlash, Buxoro viloyatida neftni qayta ishlash zavodini qurish, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodini modernizatsiyalash, Sho‘rtan gazkimyo majmuasini qurish, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘l ni qurishda ichki resurslar bilan bir qatorda Yaponiya sarmoyasi ham qatnashmoqda.

1993–2004-yillar qariyb 300 yaponiyalik mutaxassis iqtisodiyot, telekommunikatsiya, turizm, transport infratuzilmasi, ipakchilik sohalari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda faoliyat ko‘rsatdi.

1994-yilning may oyida Toshkentda O‘zbek-yapon iqtisodiy hamkorlik qo‘mitasi, Tokioda esa Yapon o‘zbek iqtisodiy hamkorlik qo‘mitasi tashkil etildi. Yapon o‘zbek iqtisodiy hamkorlik qo‘mitasi Yaponiyaning 30 ga yaqin yirik kompaniya, firma va banklarini birlashtiradi. Hozirgacha qo‘shma qo‘mitalarning 8 majlisi bo‘lib, unda ikkala mamlakatdagi sanoat korxonalarini, moliya muassasalari va tadbirkorlarining to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ayni vaqtda O‘zbekistonda 10 ta o‘zbekiyapon qo‘shma korxonasi, 3 ta 100% Yaponiya sarmoyasi hisobidagi korxonasi, yapon kompaniyalarining 22 vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda O‘zbekiston Yaponiyaga paxta va ipak mahsulotlari, gazlama, noorganik kimyo

mahsulotlari eksport qiladi, turli sayyohlik xizmatlari ko‘rsatadi. Yaponiyadan esa elektr va mexanik uskunalar, kauchuk va rezina buyumlar va boshqalar oladi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi 2001-yildan Toshkent – Osaka, 2002-yildan Toshkent–Tokio yo‘nalishida doimiy havo qatnovini yo‘lga qo‘ydi.

Yaponiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlaridan biri kadrlar tayyorlashdir. Hozirgacha respublikaning turli vazirlik va idoralardan 800 ga yaqin kishi Yaponiyada tajriba orttirib qaytdi, 98 yosh mutaxassis Yaponiyaning yetakchi universitetlarida magistratura kursini bitirdi. 2000-yildan boshlab Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi stipendiyasi asosida yiliga o‘zbekistonlik 20 magistrant Yaponiyaga ikki yillik o‘qishga bormoqda. 2001-yil Toshkentda O‘zbekiston – Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Hozirgacha ushbu markazning biznes, yapon tili va kompyuter kurslarini 1500 dan ortiq kishi tugatdi. Umuman markaz o‘tkazgan turli madaniy-ma’rifiy dasturlarda 100 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi.

O‘zbekiyapon ilmiy aloqalari ham kengayib bormoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va boshqalar shaharlardagi oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturiga yapon tilini o‘rganish ham kiritilgan. O‘zbekiston FANing elektronika, seismologiya, immunologiya, biokimyoy, umumiy va noorganik kimyo, fiziologiya va biofizika, sharqshunoslik, arxeologiya institutlari, “Botanika” ilmiy ishlab chiqarish markazi bilan Yaponiyaning tegishli universitet, institut va boshqa tashkilotlari o‘rtasida muntazam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, elektronika institutida yaratilgan metallurgiya sohasiga oid ekologik toza texnologiya Yaponiyaning “Nippon stil korporeyshn” firmasi tomonidan litsenziyali shartnoma asosida sotib olingan. 1989–98 yillarda San’atshunoslik instituti xodimlari Soka universiteti prof. Kyuzo Kato boshchiligida Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepada buddizm yodgorliklarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib bordilar.

Ikki mamlakat o‘rtasida madaniy aloqalar ham keng rivojlanmoqda. Xususan, Tokiodagi milliy nafis san’at va musiqa universiteti bilan hamkorlikda Toshkentda Xalqaro madaniyat karvonsaroyining ishga tushirilishi, “Jahon tinchlik qo‘ng‘irog‘i”ning barpo etilishi, Yaponiyadagi bir qancha ijtimoiy tashkilotlar ko‘magida Osaka, Fukushima, Maebashi shahrilarida doimiy faoliyat olib boruvchi O‘zbekiston madaniyat uylarining ochilishi bunga yorqin misoldir. Yaponiya va O‘zbekistonda ko‘plab ko‘rgazma, taqdimot, kinofestival, milliy musiqa va raqs guruhlarining konsertlari, shuningdek, 1996-yildan O‘zbekistonda Yaponiya madaniyati kunlari muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarida yangi davr boshlandi. Jumladan, 2019-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari ikki tomonlama ko‘p qirrali aloqalarni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish borasidagi urinishlari qat’iy ekanini ta’kidladi va konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish kerakligini aytib o‘tdi. Ushbu tashrif davomida O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasidagi strategik sheriklik hamda do‘stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan davlat tashriflari va shartnomalarda asosiy hamkorlik yo‘nalishi sifatida savdo-iqtisodiyotga e’tibor berildi. Xususan, Yaponiya tomonidan asosiy e’tibor

mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. O'tgan yillar mobaynida yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O'zbekistonning mashinasozlik, energetika, neft-gaz, kimyo, va to'qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohalariga jalb etish uchun qator shartnoma va bitimlar tuzishga erishildi. 2016-yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq dinamikasida ham yangi davr boshlandi.

Bugungi kunda Respublikamizda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan o'ndan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shuningdek o'n beshta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Yaponiya qo'mitasi o'zaro aloqalarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Isuzu, Sumitomo, Mitsubishi va boshqa yetakchi yapon kompaniyalarining yurtimiz hududida faoliyat olib borayotgani buning yaqqol misolidir. 2019-yilning o'zida Yaponiya sarmoyadorlari bilan qishloq xo'jaligi va sanoatni modernizatsiya qilish, energetika, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi qator loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan umumiy qiymati 6 milliard dollardan ko'p bo'lgan shartnomalar tuzilgani ham buning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilning dekabr oyida Yaponiyaga davlat tashrifi davomida ham energetika, mashinasozlik, neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab ustuvor yo'nalishlarda, Yaponiya yetakchi kompaniya va banklarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb qilishga oid bir qator shartnomalar ma'qullandi. Shu davrdan boshlab O'zbekiston Yaponiyaga mayiz, quritilgan o'rik va shu kabi turli xil quruq meva mahsulotlarini yetkazib berishni yo'lga qo'ydi. Yaponiya hukumati tomonidan mamlakatga kirib kelayotgan mahsulotlar xavfsizligi va sifati borasida yuqori standartlarni o'rnatilganligini hisobga olsak, import mahsulotlari ro'yxatida Vatanimizda yetishtirilgan mahsulotlarning ham borligi muhim yutuqdir.

Hozirgi kunda yurtimizdagi iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda va xorijiy sarmoyador uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Investirlarning faoliyatini himoya qilish va rag'batlantirish uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan ko'plab muammolarga barham berildi, tashqi savdo o'sdi va bojxona tariflari nazorati sezilarli darajada kamaytirildi. Natijada, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarda sezilarli darajada o'sish kuzatildi.

Jumladan, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi va Yaponiyaning tashqi savdo aylanmasi miqdori \$207,2 mln. ni tashkil qildi va eksport -\$ 7,6 mlanni, import esa - \$ 199,6 mln ni tashkil qildi Bunda eksport quyidagi sohalarda yuqori ulushga ega bo'ldi: Xizmatlar - \$ 2,5 mln; Kimyoviy mahsulotlar - \$ 1,7 mln; Mashina va asbob-uskunalar - \$1,7 mln. Import esa: Qora metallar - \$189,2 mln; Oziq-ovqat mahsulotlari - \$ 6,1 mln; Mashina va asbob-uskunalar - \$ 964,1 ming" ushbu sohalarda yuqori bo'ldi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stona hamda ishonchli munosabatlar ilmiy-texnikaviy, investitsion, madaniy-gumanitar sohalarda manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Chunki o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish O'zbekiston va Yaponiyaning milliy manfaatlariga xos bo'lgan siyosatdir. Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik alohida e'tiborga molikdir. Madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli rivojlantirishda 1999-yilda ta'xis etilgan "O'zbekiston-Yaponiya" do'stlik jamiyatining salmoqli

o'rni bor. 2001-yilda Toshkent shahrida ochilgan Yapon bog'i o'zbekistonliklarning turli tantanali tadbirlar o'tkazadigan sevimli maskaniga aylangan. Yaponiyada ham xalqimizning qadimiy tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqish katta albatta, jumladan, 2004-yil Yaponiyaning Soka universitetida o'zbek adabiyotining mumtoz vakili Alisher Navoiyning haykali qad rostladi. 2021-yilning iyun oyida O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasida "O'zbekiston-Nagoya" do'stlik assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda "Nagoya Toshkent bilan uchrashadi" nomli tadbir tashkil qilindi. Ushbu anjuman doirasida davlatimizning turistik salohiyatiga oid seminar, xalqimizning tarixiy-madaniy merosi taqdimoti va O'zbekiston xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida kelgusi yilda ikki davlatda diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi keng nishonlanishi qayd etilib, qator madaniy tadbirlarni tashkil etish masalasi muhokama qilindi. Jumladan, O'zbekistonda "Yaponiya kinosi kunlari"ni o'tkazish, yapon badiiy va hujjatli filmlarini O'zbekiston telekanallarida namoyish etish, Toshkent xalqaro kinofestivaliga yapon kinosi taniqli arboblarni va Xalqaro an'anaviy amaliy san'at festivaliga yapon ustalarini yuborish, shuningdek, ko'rgazmalar, choy marosimi va boshqa anjumanlarni o'tkazish bo'yicha fikr almashildi.

Bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlar tomonidan Yaponiyada ta'lim olishga qiziqish katta va yapon tilini mamlakatimiz yigit-qizlari qiziqib o'rganmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda oltita oliy o'quv yurti ta'lim dasturlariga yapon tilini o'rganish kiritilgan. Shuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti (JICA) ning yordami bilan bir qator oliy o'quv yurtlarida yapon tilini o'rganish markazlari ochilgan. Bundan tashqari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ikki mamlakatning ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan Yaponiya tadqiqotlari tahlil markazining ochilish marosimi o'tkazildi.

O'zbekiston-Yaponiya madaniy-gumanitar hamkorligi to'g'risida gapirganda, mamlakatimizda 1993-yildan beri samarali ishlab kelayotgan Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi faoliyatiga to'xtalishimiz zarur. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi O'zbekiston Respublikasiga imtiyozli kreditlar ajratish hamda grantlar taqdim etish, shuningdek, o'zbekistonlik mutaxassislar uchun Yaponiyada muayyan o'quv amaliyotlari tashkillashtirish kabi yo'nalishda yordam berib kelmoqda.

Shu vaqtgacha Yaponiya hukumati rasmiy yordam dasturi bo'yicha O'zbekistonga elektr stansiyalari, avtomobil yo'llari va temiryo'llar kabi infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish, tibbiy xizmat va qishloq xo'jaligi kabi sohalarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Shuningdek, madaniyat, ilm-fan, o'zaro tajriba almashish, universitetlar o'rtasida almashinuv, turizmni rivojlantirish va boshqa ko'plab loyihalar mavjud.

So'nggi paytlarda O'zbekiston hukumati tomonidan xususiy yapon kompaniyalarini O'zbekistonga sarmoyalari bilan jalb qilishimiz so'ralyapti. Ba'zan iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda ham. Bu maqsadga erishishda O'zbekiston hukumati uchun yapon kompaniyalari tomonidan sarmoya kiritishda qulay muhit yaratish muhim.

Yaponiya hozirda demografik inqiroz tufayli ishchi kuchi tanqisligini boshdan kechirmoqda. O'zbekistonda yoshlar ko'p. Bu yoshlar Yaponiyada ishlasa yaxshi bo'lardi. Buning uchun ularga yapon tilini o'rgatish kerak. Ikki mamlakat hukumati mehnat

munosabatlari sohasida yoshlarning Yaponiyada ishlab, tajriba orttirishlari uchun ularga zaruriy muhit yaratish kerak.

Yaponlar bilan munosabatlarni o'rnatishda biroz diqqatli va ziyrak bo'lish, masalan, va'da va kelishuvlarni bajarish kerak. Yaponlar vaqtga nisbatan biroz talabchan, aynan shunga e'tiborli bo'lish muhim.

Yapon kompaniyalarini O'zbekiston kompaniyalari yoki tadbirkorlar bilan qanday aloqa o'rnatishlari kerak degan murakkab savolga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda IT sohasi va quritilgan mevalar, mebelsozlik kabi ma'lum sohalarda tanish-bilishlar orqali yaxshi aloqada bo'lganlar ham bor. O'zbekistonga sarmoya kiritmoqchi bo'lganlar, O'zbekistonda yapon kompaniyalari bilan ishlashni xohlaydiganlar o'ylaganimizdan ko'ra ko'p. Hozirda ularni qayerda va qanday birlashtirishni bilish, ular uchun platforma yaratib berish masalasini hal qilish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o'tgan yo'llarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida qo'llay olgan. Jumladan, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin, Tayvan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko'plab jihatlaridan unumli foydalanilgan. Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba'zi bir jihatlarini O'zbekistonda ham qo'llash manfaatli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география: ўқув кўлланма. – Т.: “Молия”, 2013.
2. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1: учебник для бакалавров / И. А. Родионова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2015.
3. Чумаков А.Н. Глобализация контуры целостного мира. М.: Проспект, 2009.
4. www.geografiya.ru - Dunyo mamlakatlari haqida ma'lumotlar sayti.
5. www.Google.ru - Dunyo mamlakatlari haqida ma'lumotlar sayti.
6. www.geosita.com – Mamlakatlar geografiyasi sayti